

O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: MILLIY QONUNCHILIK VA UNING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIGI

Baxriddinov Dilshodjon Ozodjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15373193>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini milliy mexanizm va milliy qonunchiligimizga asoslangan holda himoya qilish, hukumatimiz tomonidan inson huquqlarini himoya qilish bilan bo'g'liq yangi tizimlarni muhokama qilish bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar, tuzulmalarning bu borada faoliyatini yanada barqarorlashtirish, shuningdek, xalqaro hujjatlar va xalqaro sudda ko'rilgan ishlar ham tahlil qilgan.

Kalit so'zlari: Ombudsman, milliy mexanizm, yevropa kengashi, demokratiya ustuvorligi, konvensiya, akramiya, milliy xavfsizlik xizmati, xalqaro amnitsiya, hizb-ut-Tahrir.

ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ НА ПРАКТИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы защиты прав человека в Республике Узбекистан на основе национальных механизмов и законодательства. Наряду с обсуждением новых систем, внедряемых правительством для защиты прав человека, анализируется деятельность органов и структур, ответственных за защиту прав, с целью их дальнейшей стабилизации и совершенствования. Также проводится анализ международных документов и дел, рассмотренных в международных судах.

Ключевые слова: Омбудсман, национальный механизм, Совет Европы, верховенство демократии, конвенция, Акрамия, Служба национальной безопасности, Международная амнистия, Хизб ут-Тахрир.

PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN UZBEKISTAN: NATIONAL LEGISLATION AND ITS PRACTICAL EFFECTIVENESS

Abstract. This article analyzes the national legislation of Uzbekistan regarding the protection of human rights and its effectiveness in practice. The author examines the main mechanisms for ensuring human rights based on national laws and regulations, identifies existing challenges in implementation, and suggests ways to overcome them. Special attention is given to compliance with international standards, international cooperation, and judicial practices.

Keywords: Human rights, national legislation, legal mechanisms, Ombudsman, international standards, democratic reforms

Kirish

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularga kiritilayotgan o'zgarishlar bevosita inson huquqlari, ularning manfaatlari bilan bog'liq. Sud hokimiyati faoliyati bilan bog'liq yangiliklar va qilinayotgan o'zgarishlar ham O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha insonlar foydasi uchun amalga oshirilayotganini ham takidlab o'tishimiz darkor.

Hattoki, sudning qarorisiz shaxsni oldin yetmish ikki soat ushlab turish keltirib o'tilgan bo'lsa, hozirgi yangi tahrirdagi yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizning 27-moddasida bu holat qirq sakkiz soatga o'zgarganini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. Faqatgina bu misol bilan chekalnib qolmay, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "Advokatura" bobining ham kiritilishi yangi O'zbekistonda inson huquqlariga yangicha nigoh bilan qarash, ularning huquq va erkinliklarini taminlash borasidagi ishlarni takomillashtirishga alohida qaralmoqda.

Yuqorida keltirib o'tgan misollarimizdan kelib chiqib, hozirgi yozadigan mavzumiz ham "O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish: Milliy qonunchilik va uning amaliyotdagi samaradorligi" to'g'risida bo'lib o'tadi. Bu ilmiy ishni o'rganishda O'zbekiston hududidagi insonlar va ularning huquqlari bilan bo'g'liq milliy qonunchiliklar, shuningdek, davlatimiz tashqarisida bo'lgan migrantlarning ham xalqaro hujjatlar orqali huquq va erkinliklarini himoya qilishda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ammalarni o'rganib chiqish va ularni tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ushbu mavzu boshqa o'quvchilarga mana shu mavzu doirasida yetarlicha ma'lumotlarni o'rganishda, davlatimiz izlanuvchilarining O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va milliy qonunchiligimiz, shuningdek uning amaliyotidagi samaradorligi haqida qanday fikrda ekanligi to'g'risida ham ma'lumot olishiga xizmat qiladi.

Ilmiy-nazariy

Mavuzga ba'tafsil yondoshishimiz uchun O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va milliy qonunchilikimiz to'g'risida izlanuvchilar tomonidan yozilgan bir qancha imiy-nazariy ishlarni ko'rib chiqsak.

Inson huquqlarini himoya qilinishida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakil Feruza Eshmatovaning "Inson huquqlari va erkinliklari himoya qilishdagi davlat siyosati ombudsman faoliyatida" nomli maqolaasi bo'yicha keltirib o'sak. Bunda keltirilishicha "So'nggi yillarda Ombudsmanning qiynoq holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etishga doir faoliyati yana-da kuchaytirilmoqda. O'zbekiston Resoublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq 2022-yildan Ombudsmanning hududlardagi mintaqaviy vakillari doimiy asosda faoliyat yurita boshladi, murojaatlar bilan ishlash tizimi raqamlashtirilib, fuqarolarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Konstitutsiya asosida Ombudsmanga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida parlament quyi palatasiga kiritish huquqi berildi. Hozirgi kunda fuqarolar bilan tezkor bog'lanish maqsadida zamon talablariga mos bo'lgan Ombudsman mobil ilovasi ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, yurtimizda inson huquqlarini ta'minlashdagi amaliy tajriba va bu bo'yicha qonunchilikning takomillashuvi, shuningdek Ombudsman faoliyatining kuchaytirilayotganligi natijasida nufuzli xalqaro maqomini oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Boshqacha aytganda, Ombudsmanning Parij prinsiplariga muvofiqligi bo'yicha "A" maqomiga da'vogarlik qilishiga zamin yaratildi. Parij tamoyillari inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro maydonda tan olinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu institutlar ushbu tamoyillarga rioya qilish orqali inson huquqlarini samarali himoya qilish va ilgari surishda muhim ro'l o'ynaydi"¹

¹ <https://ombudsman.uz/oz/docs/inson-huquqlari-va-erkinliklarini-himoya-qilishdagi-davlat-siyosati-ombudsman-faoliyatida>

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda jahon tan olgan chet el prinsip va tamoillardan foydalanishi, ularning inson huquqlarini himoya qilishda yangi mexanizmlarning yo'lga qo'yilganligi va bu yo'l bilan shu soha bo'yicha jahon mamlakatlarida inson huquqlarini himoya qilishda yuqorilab borayotganimizni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori chiqarilganligi, qonunlarda noaniqliklar vujudga kelgan hollarda fuqaroning foydasiga hal etilishi, "sukut saqlash" huquqining berilishi, shuningdek inson huquqi bilan bog'liq yangi o'zgarishlarni qandaydir ma'noda mamlakatimizda inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni oldini olish, ularning huquqlari himoya qilishda yangicha qadamlar tashlanayotgani va keng ko'lamli ishlar olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi o'rinda "Inson huquqlari himoyasini ta'minlash: zamonaviy chaqiriqlar va ilmiy tashabbuslar" mavzusidagi **ilmiy-amaliy konferensiya** materiallarida Narimonov.Bning "Inson huquqlarini ta'minlashda Ombudsman institutining roli" to'g'risida yozgan ishini tahlil qilib chiqamiz. Bunda "Yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishi Ombudsman institutining mustaqil milliy institut sifatidagi ro'lini yanada oshirib, Ombudsman faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirilishiga, uning inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash borasidagi vakolatlarning kengayishiga va Ombudsmanning parlament nazorati institut sifatida hududlarda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faolligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Fikrimizni isboti sifatida ta'kidlash joizki murojaatlar o'rganilishi natijasida Ombudsman tomonidan davlat organlari va tashkilotlari hamda sudlarga fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash yuzasidan kiritilgan ta'sir choralari, 2020-yilda qirqta bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich bir yuz yetmishtani tashkil etmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda shaxsning murojaat qilish huquqi konstitutsiyaviy kafolatlangan bo'lib, bu sohada qonunchilik bazasi muntazam takomillashtirilishi natijasida aholining murojaatlari bilan ishlash tizimi samarali yo'lga qo'yildi, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni birlamchi bo'g'inida, tezkor hal qilish imkonini berdi. Bunga yaqqol misol sifatida fuqarolarning Ombudsmanga yo'llayotgan murojaatlari yildan yilga o'zish sur'atlari qayd etilmoqda. Birgina mehnat huquqlarini tiklashga oid murojaatlarning ko'rib chiqilishi natijasida 2021-yilda o'n nafar, 2022-yilda o'n uch nafar va 2023-yilda o'ttiz sakkiz nafar fuqaro ishga tiklandi"².

Yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotimizda esa Ombudsmanning hozirgi kunda inson huquqlarini himoya qilishdagi ro'li, qanday natijalarga erishilayotgani, yildan yilga inson huquqlarini himoya qilish bilan bo'g'liq yangi o'zgarishlar qabul qilinayotganiga qarab o'sib borayotgani va shuningdek fuqarolarning murojaatlari ham ijobiy tomonga hal bo'layotganini ham ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridgi ikki ma'lumotni bo'g'laydigan bo'lsak, ya'ni Feruza Eshmatova hamda Narimanov.Bning bergan ma'lumotlarida bo'g'liqni ko'rishimiz mumkin. Bunda birinchi ma'lumotda inson huquqlarini himoya qilish uchun qonunchilikda qanday ijobiy o'zgarishlar, yangi mexanizmlar asosida huquqlar himoya qilinayotganligi va shuning natijasida bu sohada

² "Inson huquqlari himoyasini ta'minlash: zamonaviy chaqiriqlar va ilmiy tashabbuslar" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2024-yil 12-dekabr). – T.: TDYU, elektron nashr, 2025-y. – 66- 67-betlar

yuqori o'rinlarga ko'tarilayotganimizni ko'rayotgan bo'lsak, ikkinchi bergan ma'lumotimizda esa buning natijalarini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni mana shu Parijning prinsiplarini qo'llash, "A" maqomga yetishishda amalga oshirilayotgan amaliy natijalarni ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda berilgan ma'lumotlarimizdan farqli ravishda o'zimni ham fikrimni keltirib o'tsam. To'g'ri, inson huquqlarini himoya qilishda mana shunday organlar bo'lgani demokratik davlat ekanligimizni, qolaversa inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq amaliy ishlar olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, mana shunday organlarni tashkil etish va ish faoliyatini takomillashtirilishi bilan bir qatorda sud hokimiyatiga, uning ko'rilyotgan har bir ishlari shaffof, odilona va obyektiv jihatdan to'g'ri malakalashishiga, qonuniy va adolatli qaror va hukm chiqarishi uchun ham bir qancha amaliy ishlarni amalga oshirish kerak. Shundagina inson huquqlari himoyalaniishi mustahkam bo'lar edi. Shuni ham e'tiborga olishimiz kerakki, yuqoridagi fikrlarimdan, inson huquqlarini himoya qilishda "Ombudsman kerak emas" yokida "Faoliyatini boshqacha tarzda to'xtatishi kerak" demoqchi emasman. Biroq, yuqoridagi ishlar amalga oshirilsa, fuqarolarning Ombudsmanga murojaat qilish va boshqa ovvoragarchiliklarga barham berilgan bo'lar edi.

Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, oldini olish va buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha qonunchiligimizda turli xil yangiliklar va o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunga misol qilib, yuqorida aytib o'tganimizdek yangi tahrirdagi Konstitutsiya, "Qiynoqlarga solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezidentimizning qarori, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid -huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" vazirlar mahkamasining qarori, "Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi vazirlar mahkamasi qarorlari, Shuningdek holi kuchga kirmagan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shaklidan himoya qilish to'g'risida"gi qonunni keltirib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, yuqorida sanab o'tgan milliy qonunchiliklarimizga alohida to'xtalib o'tamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda inson huquqlari bilan bo'g'liq bir nechta yangi o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunga misol qilib, Konstitutsiyamizning 20-moddasi beshinchi qismida shunday keltiriladi, "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi"³

Bu normani sharhlaydigan bo'lsak, fuqarodan farqli o'laroq yaxshigina kuchga ega bo'lgan davlat bilan muammolar yuzaga kelgan hollarda, nizolashayotgan vaqtda shu ish bo'yicha qonunchilikda ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda davlatning emas, balki fuqaroning foydasiga hal bo'lishi, adolatlilik jihatdan ham to'g'riligi ko'rsatib o'tilgan. Huddi shu moddaga misol sifatida Prezidentning tomonidan chiqarilgan "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishi ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli qarorda ma'muriy sudda davlat organlari va fuqaro o'rtasidagi kelib chiqadigan nizolarda

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

“Sudning faol ishtiroki” ya’ni fuqarolar bergan dalillar bilan cheklanib qolmasdan sudlarning o’zlari ham dalil to’plashda tashabbuskorlik qiladi deb keltirib o’tilgan⁴. Bundan ko’rinib turibdiki fuqaro va davlat sudda teng kuchga ega emasliklari va davlatning mustaqil hokimiyati fuqaroni foydasiga harakat qilayotganini ko’rishimiz mumkin.

So’nggi besh yil ichida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va erkinliklarini kafolatlash bo’yicha mamlakatimizda yana bir muhim qonunlardan biri, “Qiynoqlarga solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” Prezidentimizning qarori e’lon qilindi va bunga ko’ra qiynoqqa solinayotgan shaxslarni himoya qilish, shafqatsiz va qadr-qimmatini kamsituvchi muomala hamda boshqacha tartibdagi zo’ravolliklarga yo’l qo’yilmasliklari keltirib o’tilgan. Qarorda keltirilishicha “Qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko’rsatilishini hamda ularga yetkazilgan zararning kompensatsiya qilinishini ta’minlash” deb keltirib o’tilgan⁵.

Quyida keltirilgan rasmda esa **“The globalEconomy.com”** O’zbekistonda inson huquqlari va qonun ustuvorligi indeksi ko’rsatilgan va bu to’g’risida quyidagicha keltirib o’tiladi. “2024-yildagi oxirgi qiymat 7,4 indeks punktini tashkil etadi, bu 2022-yildagi 7,6 indeks punktidan pasayishdir. Taqqoslash uchun, 176 mamlakat ma’lumotlariga asosanib, jahon o’rtacha ko’rsatkichi 5.41 indeks punktini tashkil etadi. Tarixan O’zbekiston bo’yicha 2007-2024 yillardagi o’rtacha ko’rsatkich 8,69 indeks punktini tashkil qiladi. Minimal qiymatga, ya’ni 7,4 indeks punktiga 2024-yilda erishilgan bo’lsa, maksimal 9,4 indeks punkti 2016-yilda qayd etilgan”⁶. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda yildan yilga inson huquqlarini himoya qilish bilan sohasi kuchaytirilib, inson huquqlari buzilish bilan bo’g’liq holatlar kamayib bormoqda.

Shu bilan birga xalqaro huquq sohasida ham inson huquqlarini himoya qilish bilan bo’g’liq bir qancha hujjatlar ishlab chiqarilmoqda. Bularga yaqqol misol sifatida 2024-yilda qabul qilingan **“Yevropa Kengashining sun’iy intellekt, inson huquqlari, Demokratiya ustuvorligi”** bo’yicha asosiy konvensiya chiqarilgan. Bu konvensiyada hozirgi texnologiyalar rivojlangan bir davrda sun’iy intellektlarni hayotga tatbiq qilish va manashu qo’llanish jarayonida inson huquqlariga zarar keltirmasligi, boshqacha tarzda daxl qilmasligi va shu bilan birga davlat hokimiyatiga ham hech qanday muammolar tug’dirmasligi bo’yicha yoritilgan.

Konvensiyaning 7-moddasida (Inson qadir-qimmati va shaxsiy avtonomiya) keltirilishicha “Har bir taraf sun’iy intellekt tizimlarining hayotiy davri doirasidagi faoliyatlar bilan bog’liq ravishda inson qadr-qimmati va shaxsiy avtonomiyani hurmat qilishni ta’minlash

⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo’lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. <https://www.lex.uz/docs/-5841287>

⁵⁵ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5475607>

⁶ https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/human_rights_rule_of_law_index/

uchun tegishli choralarni qabul qiladi yoki saqlab qoladi” deb keltirib o’tilgan⁷. Bu shuni anglatadiki, har qanday holatda ham, sun’iy intellektdan foydalanish davomida inson huquqlarini hurmat qilishda, kamsitilishga yo’l qo’ymaslik talab sifatida keltirib o’tayapti.

Bundan tashqari shu konvensiyaning 4- moddasida sun’iy intellektning tizimlaridan foydalanishda inson huquqlarini himoya qilish majburiyatiga mos kelishini ta’minlash, uchun kerakli choralarni ko’rishligi, 9-moddada esa agar sun’iy intellektdan foydalanish vaqtida demokratiyaga va inson huquqlariga har qanday holatda daxl qiladigan bo’lsa, bunday sa’lbiy ta’sirlar uchun hisobdorlik va ma’suliyatni ta’minlash maqsadida tegishli choralarni ko’rishligi keltirib o’tilgan.

Bu konvensiya bo’yicha quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holatida ham, boshqa yangicha o’zgarishlar vaqtida ham inson huquqlari har doim birinchi darajali bo’lib qolishi, huquqlar buzilgan taqdirda esa zarur choralar ko’rilishi belgilangan.

Sudlov organlari amaliyoti

Mashhur yozuvchi va faylasuf **Baltasar Grasian** o’zining “Ortiqcha ehtiyotkorlik – eng katta xavf” asarida shunday degan edi “Qonunlar aylanib o’tish uchun chiqariladi”.

Barcha noxush va ko’ngilsiz ishlarni oldini olish uchun davlat qonun hujjatlari ishlab chiqarsa ham uni noto’g’ri talqin qilinishi va amaliyotda o’rinsiz qo’llanilishiga ko’p guvohi bo’lganmiz. Hozirgi yoritayotgan mavzumizda ham O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan bo’g’liq holatni xalqaro sudda ko’rib chiqilganligini tahlil qilib chiqamiz.

“Ilhomjon Ismoilov va boshqalar Rossiya qarshi”

Holatda aniqlanishicha hozirgi keltirmoqchi bo’lgan masalamiz 2004-2005 yillardagi Andijon voqealari bilan bog’liq. Amnesty international va HumanRights Watchning arizachiar tomonidan taqdim e’tilgan hisobotlarga ko’ra, 2004-yil iyun, avgust oylarida Andijon viloyatida yigirma uchta tadbirkor va shu yilning sentabr oylarida ularning yigirma nafar xodimi Toshkentda hibsga olinadi. 2005-yilda esa o’n uch nafar tadbirkorlar guruhi hibsga olinadi. Bularning sababi esa **Akramiya** nomli tashkilotga aloqadorligi bahonalari edi.

Usmonov, Naimov, Mahmudov va Alimov Toshkent va Andijondagi xususiy kompaniyalarda sherik bo’lgan. Xususiy korxona xodimlari esa Ismoilov, Ulug’xo’jayev va Sabirovlar bo’lgan. 2004-yil kuzida soliq idoralari **Milliy xavfsizlik xizmati** (keyingi o’rinlarda MXX) bilan birgalikda kompaniyalarning soliq ishi bo’yicha surishtiruv o’tkazdilar. Shu bahona Akramiya faoliyatida gumon qilinib, 2005-yil yanvar oyida ulardan uch kishisi hibsga olingan. Janob Naimov 2004-yil sentabrida MXX tomonidan hibsga olingan va o’n besh kun hibsdan saqlangan. U bir necha bor kaltaklangan va biznesi va Akramiyaga a’zoliqi haqida so’roq qilingan. Ozodlikka chiqqanidan keyin uni bir necha bor MXX idorasiga chaqirishgan, u yerda MXX xodimlari unga va uning oilasiga tahdid qilgan. Shundan so’ng Usmonov, Naimov, Mahmudov, Alimov, Ismoilov, Ulug’xo’jaev va Sobirov 2005-yilning yanvar-mart oylari orasida ta’qib qilinishidan qo’rqib O’zbekistondan Rossiyaga ketishgan.

2005-yilda fevral oyida Toshkent prokuraturasi Naimovni Akramiyaga a’zolikda ayblab, uni jinoiy til biriktirish, O’zbekiston konstitutsiyaviy tuzumini ag’darishga urinish, noqonuniy

⁷ <https://rm.coe.int/1680afae3c>

tashkilotga a'zolik va buzg'unchilik adabiyotlarini saqlash va tarqatishda aybladi va hibsga olish to'g'risida qaror qabul qildi. Shuningdek, Shu yilning iyun oyida O'zbekiston prokuraturasi boshqa arizachilarni "Akramiya", "Hizb-ut-Tahrir" va "Turkiston islomiy harakati" kabi ekstremistik tashkilotlarga a'zolikda, terrorchilik faoliyatini moliyalashtirganlikda, O'zbekiston konstitutsiyaviy tuzumini zo'ravonlik yo'li bilan ag'darishga urinishda, ommaviy tartibsizliklar uyushtirganlikda, tartibsizliklar uyushtirganlikda aybladi.

Arizachilarga bir qator ayblovlar qo'yilganidan so'ng, ular 2005-yil 18-iyunda Ivanovoda hibsga olingan. Ularni hibsga olish sabablari haqida ma'lumot berilmagan. 2005-yil 20-iyunda ular O'zbekistondagi MXX xodimlari tomonidan so'roq qilingan va ular O'zbekistonda qiynoqlarga duchor bo'lishlari, turli jinoyatlarga iqrar bo'lishlari va uzoq muddatga qamoq yoki o'lim jazosiga hukm qilinishi bilan tahdid qilishgan.

Turli davlat organlaritomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Arizachilar ma'muriy qoidabuzarlik qilganligi sababli hibsga olingan va qidiruvda ekanligini bilganliklaridan so'ng 2006-yil 16-yanvardagi xat bilan Ivanovo viloyat politsiya boshqarmasi barcha arizachilar 2005-yil 19-iyunda hibsga olinganligini ta'kidladi. Bir kundan so'ng ushbu shaxslar hibsga olinganligi to'g'risida Toshkent politsiyasiga xabar bergan va ekstraditsiya qilingunga qadar hibsdan saqlash so'ralgan. Shu bilan birga 2005-yil 21-iyulda O'zbekiston Bosh prokurorining birinchi o'rinbosari tomonidan keyingi kafolatlar berildi. U arizachilar o'lim jazosi, qiynoqlar, zo'ravonlik yoki g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoning boshqa shakllariga duchor bo'lmasligini o'z zimmasiga oldi. Ularning mudofaa huquqi hurmat qilinadi va ularga maslahat beriladi. U, shuningdek, O'zbekiston rasmiylari arizachilarni siyosiy motivlar, irqi, etnik kelib chiqishi, diniy yoki siyosiy e'tiqodiga ko'ra ta'qib qilish niyatida emasligiga ishonitirdi. Ularning maqsadi arizachilarni o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish edi.

Asil holatda esa arizachilar noqonuniy hibsga olinganligi, hibsga olish to'g'risida hech qanday qaror yo'qligini asos qilib arizachilarning advokatlari Ivonova shahridagi Sovetskiy va Frunzenskiy tuman sudlariga ariza bilan murojaat qilgan. Lekin sud arizachilarning shikoyatini qaytardi va arizachilar hech qanday apellyatsiya berishmadi.

Arizachilar hibsdan saqlanaverdi, Advokatlari ozodlikka chiqarishga qanchalik harakat qilishmasin, davlat organlari turli xil bahonalarni keltirib, ularni saqlab turaverdilar.

Arizachilarning advokatlari sudga shikoyat qilishgan, biroq sudlar ham shikoyatni qaytarishgan.

Shundan so'ng arizachilar boshqacha yo'l tutadilar, ya'ni qochqin ma'qomini olish uchun ariza yuboradilar, Bunga sabab qilib tadbirkorlik faoliyati bilan bo'g'liq ta'qiblardan qochib shu yerga kelganliklarini Rossiya Federal Migratsiya Xizmatiga tushuntirishadi. Shuningdek, BMT tomonidan "Akramiya" faoliyatida ham hech qanday ekstremistik faoliyat yo'qligini ham ta'kidladilar. BMT qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi yana Andijon voqealaridan keyin ta'qiblar xavfi ortganini ham keltirib o'tdi. Shundan so'ng Rossiya qonunchiligiga muvofiq jazolandilar. Shunda ham bu ariza qanoatlantirilmadi. Arizachilar sudga murojaat qilishdilar va sudda "Andijon voqealari va ularning oqibatlarini to'g'ri e'tiborga olmadi, deb hisoblaydi, chunki o'sha voqealarga aloqadorligini rad etgan va ular Rossiyaga voqealar sodir bo'lishidan ancha oldin kelgan" degan e'tirozni kiritishgan. Biroq sud ham buni tan olmagan.

Ushbu vaziyatga mos ravishda tegishli xalqaro va ichki huquq va amaliyotlar bo'lib o'tgan va O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ekstraditsiya masalalarini ko'rib, muddatlar masalasi qonuniy emasligini, "Minsk konvensiyasi", Jinoyat-protsessual kodeksining ushlab turish asoslari, 1951-yildagi "Jeneva konvensiyasi", "Qochqinlar to'g'risida"gi qonunni ko'rib chiqilgan va hech birida Rossiyaning xatti-harakatlari asosli bo'lib chiqmagan. Shunga mos ravishda Xalqaro Amnistiya tashkilotining O'zbekistondagi hisobotlarida ham quyidagicha keltirilgan. "Xalqaro Amnistiya Andijon voqealari bilan bog'liq holda hibsga olingan barcha shaxslarning xavfsizligi uchun qayg'uradi. Bu xavotirlar O'zbekistonning milliy xavfsizlik nomidan inson huquqlari buzilishining yaxshi hujjatlashtirilgan tarixiga asoslanadi. Xalqaro Amnistiya bu kabi barcha hibsga olingan shaxslarni qiynoqqa solish va Xalqaro Amnistiya qarshi jinoyat sodir etgan deb hisoblagan boshqa yomon muomalalarga duchor bo'lish xavfi ostida deb hisoblaydi. Xalqaro adolatli sudlash standartlarini buzadigan tarzda sudlanganlik xavfi ostida bo'lish, o'lim jinoyatlarida ayblangan shaxs, adolatsiz sud jarayonidan keyin o'lim jazosi qo'llanilishi natijasida o'z yashash huquqining buzilishi xavfi ostidadir."

Shundan so'ng arizachilar jazoni g'ayriinsoniy sharoitlarda o'tashlarini da'vo qilishgan. Bunda hibsga olish va hibsdan ushlab turilishi noqonuniy ekanligi, ushlab turish sabablari to'liq keltirilmaganligi va arizachilarga berilmaganligi, hibsdan ushlab turish muddatlariga rioya qilinmaganligi to'g'risida keltirib o'tilgan. Sud arizani ish yuritishga qabul qilgan va bu borada javobgar davlatda moliyaviy sanksiya qo'llaydi.⁸

Yuqoridagi keltirilgan sud ishida O'zbekistonlik fuqarolarga qay darajada muomalada bo'lganliklari, O'sha vaqtlardagi O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyalarining sudlov, organlari va boshqa qonunga zid bo'lgan holatlarni guvohi bo'ldik.

Biroq xalqaro sudda o'z haq-huquqini e'tibordan chetda qoldirmaydigan, o'ziga e'tiborli shaxslar o'zining huquqlari, erkinliklari buzulganligini, davlat noto'g'ri ish qilayotganini isbotlash uchun himoya qilishning barcha bosqichlaridan o'tdi va o'z haq-huquqlarini talab qilib oldi. Shunga yarasha sud ham kerakli bo'lgan sanksiyani qo'llab arizachilarning shikoyatlarini qanoatlantirdi va ularni kompensatsiya ko'rinishida qoplab berish to'g'risida hal qiluv qarorini odilona va adolatli chiqarib berdi.

Ishimiz yakunida yuqorida keltirib o'tgan ilmiy munozaralar, turli xil nazariyalar, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish borasida qonunchiligimizda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlarga asoslanib quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin.

Inson huquqlari buzulgan taqdirda ham qanday yo'l bilan bo'lmasin, yakunida jabr chekkanlarga nisbatan ularning foydasiga davlat albatta yon bosadi, ularga g'amxo'rlik qiladi. Chunki nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda insonning huquqlari va uning erkinliklari doimo birinchi darajali bo'lib hisoblanadi.

⁸ <https://hudoc.echr.coe.int/eng#%7B%22itemid%22%3A%22001-78766%22%7D>

REFERENCES

I.Adabiyotlar:

- 1.1. Inson huquqlari himoyasini ta'minlash: zamonaviy chaqiriqlar va ilmiy tashabbuslar" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2024-yil 12- dekabr). – T.: TDYU, elektron nashr, 2025-y. – 66-67-betlar.

II.Qonunchilik hujjatlari:

- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
- 1.5. "Yevropa Kengashining sun'iy intellekt va inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi to'g'risida"gi doiraviy konventsiyasi

III.Web-saytlar:

- 1.6. <https://lex.uz/>
- 1.7. <https://library-tsul.uz/>
- 1.8. <https://ombudsman.uz/uz>
- 1.9. <https://www.theglobaleconomy.com/>
- 1.10. <https://www.coe.int/en/web/portal/home>
- 1.11. <https://www.echr.coe.int/>